

Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning,
ilm-u donishning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiydir.

Amir TEMUR

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:3 (67064)
2016-yil
18-yanvar

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshilagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

www.tongyulduzi.uz



BEBaho DUR YOG'DUSI

Respublika bolalar kutubxonasining yetakchi mutaxassis
Nargiza Berdiyeva poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi
259-umumta'lim maktabi o'quvchilari Munavvar Ochiliyeva,
Umida Musamuhamedova va Sevinch Jovliyeva bilan yangi
nashrni ko'zdan kechirishmoqda. 8-bet



Ushbu sonda:

J ASHNOBODNI
ASHINATAYOTGAN
OSHLAR

2-bet

Yangi rukn:

«Tong yulduzi»
a'lochilar

3-bet

SIZNING KITOBI
JAVONINGIZGA

8-bet

ONA ALLASIDAN BOSHLANAR HAYOT

*Farzand mehr
bog'ining totli mevasi.
Uning qo'ng'iroydagi
yangrangan ilk ovozidan
ko'nglimiz yorishadi. Onaning
sehrli allasi bilan boshlangan
hayot sabog'idan qalbida
yashash ishtiyobi tug'ilgan
murg'ak go'dakning umr yo'li
shahd bilan boshlanadi,
desak mubolag'a
bo'lmaydi.*

Mamlakatimiz rahbari tomonidan 2016-yilni «Sog'lom ona va bola yili» deya nomlanishi ham bejiz emas. Hayotda ona va bolaning uzviy bog'liqligi, farzand tarbiyasida onalarning o'mri nechog'lilq muhimligini bilamiz.

Har gal sinfxonaga kirib borganimda, oppoq qushlar kabi tizilib turgan o'quvchilarimning o'tli nigohlaridan zavqlanaman. Kelajagimizning davomchilari bo'lgan bu beg'ubor qalb egalari bir kun kelib, yurtimiz tuprog'ini yanada gul-u gulzorlarga aylantirishiga ishonaman. Sariosyo Surxon vohasining eng so'lim maskanlardan biridir. Bu tuproqda behisob allomalar izi borligiga guvohniz. Vatan darsi bilan boshlanadigan sabog'imiz zamirda ona bilan uzviy bog'liq bo'lgan betakror yurt timsoli ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Bejiz tug'ilib o'sgan tuprog'imizni jannatga mengashmaydi. Sharqirab ogayotgan daryolar harorati-yu, purviqor tog'lar salobatidan ruhlanib ulg'aygan farzandlarimiz yo'liga bugun hech narsa g'ov bo'la olmaydi. Istiqlolning totli mevalari bo'lgan yoshamizning hayot yo'li nurafshon bo'lishi uchun biz ustozlar o'zimizning doim mas'ulligimizni his etamiz.

Yurtimizning eng chekka qishloqlaridan birida o'sib-ulg'ayayotgan yoshamizning yuksak orzularidan mammun bo'lamiz. Ularning kelajaka barcha orzu-istiklari ushalishi uchun tinimsiz xizmat qilayotgan ustozlarning bebaho mehnati bir kun kelib, o'zining sarxil mevasini berishi, shubhasiz.

Nodira QURBONOVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosyo tumanidagi
2-umumta'lum maktabining ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi



Orzulari bir dunyo

Yaqinda
maktabimizda olyi
toifali pedagog Nigora
Umarova boshlang'ich sınıf
o'quvchilari o'rtasida «So'zlashuv
odobi» mavzusida tarbiyaviy soat
o'tkazdi.

YUKSAK IDROK BILAN

O'quvchilarga so'zlashuv, muomala odobi va madaniyati haqida tushuncha berib, xushmuomala bo'lish, har bir so'zni aql-idrok bilan ifoda etishga qaratilgan ushu tarbiyaviy soatda shogirdlariga ko'p lab savollar bilan murojaat qilib, ularni qizg'in muloqotga chorladи.

Mash'ulot davomida hadis va hikmatli so'zlardap unumli foydalanildi. Tarbiyaviy soat so'nigid o'quvchilar yaxshi so'zning naqadar sehrli va mo'jizakor ekanligini yana bir bor angladilar.

Odobronma fani bo'yicha o'quv dargohimizning ilg'or boshlang'ich sınıf o'qituvchilaridan Marhabo Meliboyevanining «Ota-on - aziz va mo'tabar», Ma'mura Ummatovaning «Merosimiz - faxrimiz» mavzusida o'tkazgan adabiy kecha o'zining hayotiy, ta'sirchanligi bilan ko'pchilikning e'tiborini tortdi.

Tadbirlarda Rayhona Yusupova, Faxreddin Abdumo'minov, Sunnat Tangirov kabi o'quvchilar o'zlarini tayyorlagan fotoalbum, buklet hamda tarqatma materiallari bilan faol ishtirot etishdi.

Nigora ZOKIROVA,
Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi
26-umumta'lum maktabining o'quv
ishlari bo'yicha direktor o'rinosari

ASHNOBODNI ASHNATAYOTGAN OSHHLAR

Jumladan, tumanda joylashgan 206-umumta'lum maktabida ibratlari ishlari talaygina. Bugungi kunda bilim maskanida 1113 nafar o'quvchiga 68 nafar ustozlar ta'lum-tarbiya berishmoqda. Maktabda fan oyliklari, ochiq darslar qiziqarli o'tkaziladi. Unda turli tanlovlari, sayohatlar yusuhlariladi.

«Konstitutsiya - baxtimiz poydevori» mavzusidagi tanlovda 6-«V» sınıf o'quvchisi Zarbuvi Nazarova bayon yo'nalihsida va 9-«B» sınıf o'quvchisi Fazilat Rixsiboyeva insho yo'nalihsida 1-o'rinni egalladi. Shuningdek, mazkur tanlovda 9-«V» sınıf o'quvchisi Shahoza Yusupova tumanda faxrla o'rinni qo'liga kiritdi.

Fan olimpiadasining tuman bosqichida maktabning 9-«A» sınıf o'quvchilari ayniqsa, faol ishtirot etishdi. Jumladan, ona tili fanidan Nigina Toshpo'latova 2-o'rinni, kimyo fanidan Mohtob

Soliyeva 3-o'rinni, geografiya fanidan Dilnoza Qurbanova 1-o'rinni, fizika fanidan Bunyod Isroilov 2-o'rinni egallab shahar bosqichida ishtirot etishga muvaffaq bo'lisdidi.


Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan maktabda katta bayram shodiyonlari bo'lib o'tdi. 3-«A» sınıf o'quvchilari ustozlari Fotima opa Xoliqova boschiligidagi o'tkazilgan tadbida Vatan madhi yana bir bor kuylandi. Jajji qalblar «Ota-on a mag'a, ustozlarimga, yurtim va Yurtboshimga

munosib farzand bo'laman, Vatanimga xizmat qilaman», deganlarida, qalblar quvonchga to'ldi. Ayniqsa, «Dunyoga tinchlik kerak, biz tinchlik tarafdir», degan so'zlar ishtirotchilar ko'zlarida yosh

qalqishiga xotirjam tinglashning iloji yo'q edi.

Tadbir yakunida maktab o'quvchilari ishonchli qo'llarda ta'lum-tarbiya olayotganlari uchun yana bir bor guvoh bo'ldik. Bir kun kelib, Yashnobodni yashnatayotgan o'g'il-qizlar yurtimiz ravnaqiy yo'lida bor bilim va mahoratini, kuch-g'ayratini sarflashi, shubhasiz.

Feruza SOYIBJON qizi



- Bobomiz Alisher Navoyning
«Kishining zeb-u ziynati bilim va
odobdir», degan hikmatli so'zlarini
maktabimiz jamoasi o'zlariga shior qilib
olgan. O'z navbatida, ustozlarimiz ham
mana shu xislatlarni o'quvchilar qalbiga
singdirishga harakat qilishadi, - deydi
maktab rahbari Mahzuna Hamdamova.



ZUBAYDA va NIZOMIDDIN olgan suratlari



Dig'at! Yangi rukn: «Tong yulduzi» a'lochilar

Maktabda hamma ishlarda faol, barcha fanlarni «a'llo» baholarga o'qiydigan tengdoshlaringizga «A'lochilar», deya nisbat beriladi. Bu tirishqoq, o'z ustida tinimsiz ishlaydigan o'quchilarining rasmlari «A'lochilar taxtasi»ga ilinganida, ko'pchilik ularga havas bilan qaraydi. Bilsizimi, gazetamizning ham ana shunday a'lochilar bor. Ular har safar bizga erishayotgan muvaffaqiyatlariyu, ro'y berayotgan yangiliklar haqida to'lib-toshib maktub yo'llashadi. Bunday faol o'quchilarimiz juda ko'pchilikni tashkil etadi. Shu bois, Gazetamizda «Tong yulduzi» a'lochilar ruknini tashkil etdik.

Quyida e'tiboringizga havola qilayotgan o'quchilarimiz sizga juda ham tanish, ayni damda, gazetamizning a'lochilar hisoblanishiadi.

Bu o'quchilarga havas qilib, siz ham ular qatoridan joy olmoqchi bo'lsangiz, shoshiling. Viloyat yoxud tumaningizda yuz berayotgan o'zgarishlar, sizlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, maktab, mahallada o'tkaziladigan tadbirlar haqida ijod namunalaringizdan bizga yozib yuboring.

KITOBlik xon

Qashqa-daryo viloyati, Kitob tumanidagi 4-umumta'lim maktabining 8-B sinif o'quchisi Anvarjon ABDULLAYEV bizga maktub yo'llaydigan eng faol o'quchilardan hisoblanadi.

U 2015-yil davomida o'zi tuzga n boshqotir malar bilan sizlarni bo'sh vaqtinzinga ma zmu n bag'ishlab, topqirligingiz-u zukkoligingizni



sinovdan o'tkazdi. Anvarjon tahririyatimiz hamda qator tashkilotlar hamkorligida o'tkazilgan «Kim ko'p kitob o'qidi?» respublika ko'riktanlovida qoliblikni qo'lg'a kiritib, faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. U bizga yo'llagan maktubida a'llo o'qishi va bo'sh vaqtlarida ko'p kitob mutolaa qilishi haqida yozgan. Bu safar ham Anvarjon sizlarni zukkolik bahsiga chorlamoqda.

TOPQIRLIK BAHSI

Soat mili yo'nalishida:

- Zukko o'quvchi.
- Qizlar ismi.
- Aziz, qadrli.
- Qoraqalpog'istondagi tuman.
- Braziliyadagi mashhur futbol stadioni.
- Q'mondon, q'shimboshi.
- Osmon jismlarini o'rganuvchilar.
- Katta ilmiy unvon.
- Jurnalga obuna bo'lish.
- Eniga: 2. Aro, bo'ylab. 4. Taom turi. 10. Sog', salomat. 12. Mangu, boqiy.
- Onaning akasi yoki ukasi.
- Amirlik boshlig'i.
- Bo'yiga: 6. Arab davlati. 7. Guldon. 8. Sekin, ohista.
- Qo'l «mikroskop».
- Go'zallik, husn.
- Qozoq adibi.



ALLO!

MEN – DILNURAMAN

Mana, bir necha yildirki, tahririyatimizga tez-tez qo'ng'iroq qilib, «Men Sirdaryodan Dilnura Safarovaman», deya o'zini tanishiradigan bu qizimiz ham juda faol.

U gazetamiz bilan birga ulg'ayib boryapti, desak, xato bo'lmaydi. Dilnura tez-tez tahririyatga qo'ng'iroq qilib, bayramlarda tabriklashni kanda qilmaydi. U gazetamizga o'zi singari tengdoshlarini ham jaib qilganini, ularning ham ijod namunalaridan yuborishi, ayniqsa, nashrimizga hammdan oldin yillik obuna tilab, kelgusida yanada chiroyli she'rlar yozishiga tilakdoshmiz.



SAVODXON QIZ MAKTUBI

ishirokin uchun tuman bosqichida faariy yorlig bilan tagdirlandim. Dugonalarim Odrabonu va Yulduz ham mazkur festivalda raxs yonalishida fol ishtiroki uchun faariy yorlig bilan tagdirlandishdi. Bundan istor-

tarimiz juda mammun bolishdi.

Biz bu yil sinfigiz bilan birgalikda turinchilardan solis. Tong yulduzi gazetasiga obuna boldik.

Sevimi gazetamizda berib borilayotgan sherkalar, hikoyalari va magolalarni endi temalol oqiy olamiz.

Buning uchun siz ijodkorlarga katta rahmat aytib, yodiy istalgirda ruvo tilab qolaman.

Tong yulduzi gazetasining muixlistari soni toboza kopayauverin!

E'zoza Shhomova, Haradot viloyati. Izzaz tumanidagi 10-unum talim maktabining 1-sinf oquvchisi



Tong yulduzi gazetasiga maktub. Assalomu alaykum, Tong yulduzi gazetasi ijodkorlari!



Maktabimizda biz oquchilarning ogishimiz uchun barcha sharotlar yaratilgan. 10-sonimiz Zuhra opa Jeysova bizga alifbe, yozuv, matematika darslarini qurt kilan orgattdilar. Ingliz tili fani 10-sonimiz Sebo Toraevadan esa biz ingliz tilida sahmatlashish sanash, otta azolarimizni, 1-sinf phozlarini, sevimi oynachotimizni inglizcha aytishini organindik.

Darsdan bosh vaqtimda musiga istorimiz Gulnoza Normurodova dan fortepianoda tuy chalish sirlarini organmogdamdan. Kamalak yulduzlarini totalar yodiyoti festivalida fortepiano yonalishida faol

Tahririyatdan: Endigina savodi chiqqan qizaloqning bizga yo'llagan maktubi barchamizga ma'qul bo'ldi. Imlo xatolarisiz, husnixatda chiroyli yozilgani uchun qo'lyozma shaklida e'tiboringizga havola etgimiz keldi.

Iqtidorli tengdoshing

SIRDARYOLIK SALIMA

Salima RAYIMQULOVA – Sirdaryo viloyati, Yangiyer shahridagi Guliston davlat universiteti qoshidagi akademik litseyning xorijiy tillar yo'nalishi 1-bosqich o'quvchisi. U 2015-yili o'tkazilgan viloyat miqyosidagi ingliz tilli fan olimpiadasida faxrli o'rinni egallagan.

Bunda uestozi Mohina Majidovaning xizmati katta bo'ldi.

Yaqinda uning «Turon zamin ziyo» nashriyotida «Ko'zmunchoq» nomli ilk she'riy kitobi nashrdan chiqdi. Ayni Yangi yil arafasida yaqinlariga bayram tuhfsini taqdim etgan yosh shoira qizimizni tabriklab, uni

suhbatga chorladik:

– Birinchi yozgan she'rim «Olmaxon» deb nomlangan edi, – deya eslaydi Salima. – Ilk ustozim – onajonim, rus tili fani o'qituvchisi Halima Hazratqulova. Ular mening she'r-

ANOR

Qip-qizil, nordongina,
Anorlarga bir qarang.
Qaysi birin yeyay deb,
Tanlolmay boshim garang.

Bunisin yeyay desam,
Bunisi qolib ketar.
Qolganlari esa-chi,
Ko'zginamni shod etar.

Vaqtim ham o'tib ketdi,
Deguncha unday-bunday.
Hattoki bilmay qoldim,
Hammassin yedim qanday?



larimni o'qib, xato-kamchiliklarini tuzatib berganlar. Keyinchalik 6-sinfda o'qiyotganimda, ona tili va adabiyot fani o'qituvchimiz Musodara Anvarova rahbarligidagi «Yosh a da bi yotchi» to'garagiga qatnay boshladim.

Salima bugungi kunda ingliz, rus tillarini yaxshi biladi. Sportning karate turi bilan shug'ullanib, qizil belbog' sohibasi ham bol'gan.

Kelajakda tarjimonlik kasbini egallab, yurtimiz ravnaqi yo'lida xizmat qilishdек ezgu niyatda bo'lgan Salimaga bu borada muvaffaqiyat tilaymiz.

Dilorom HOTAMOVA

Yurtimiz
tarixini yaxshi
bilish barchamizning
farzandlik
burchimizdir. Men o'z
mahallamiz tarixini
yanada yaxshiroq
o'rganmoq-chiman.

jonkuyar, fidoyi insonlardan. U kishi guzarimizdagи
oilalarini tinch-totuvligi uchun jon kuydirib ishlaydilar.
Mahallamiz posboni Baxtiyor aka Baydullaev
hududda istiqomat qiluvchi fuqarolar bilan doimiy
ravishda davra suhabatlari o'tkazib kelmoqda. Biz
mana shunday jannatmakon yurtda yashayot-ganimizdan faxrlanamiz.

Bizning mahallamiz Denov tumanida joylashgan bo'lib, u bejizga «Nurli manzil» deb atalmagan. Sababi, mahallamiz ko'chalari obod, ozoda, sport o'yingohlari, do'konlar, ko'p qavatl uylar, turli-tuman hashamatli inshootlar go'zal maskanimizga ko'rk bag'ishlab turibdi. Mahallamizning raisi Shahodat opa Rahmonova

Dilfuza RUSTAMOVA,
Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 10-IDUM 7-sinf o'quvchisi

Boshlang'ich sinflarda «OCHIQ DARS»

Toshkent viloyatining Yangyo'l tumanida joylashgan 1-umumta'l'm maktabi tumanda mahorat maktabiga aylangan. Ushbu dargohda tashkillashtiriladigan tarbiyaviy soatlar, ochiq darslar namuna sifatida pedagoglar orasida keng ommalashtirilmoqda.



Mazkur bilim maskanining boshlang'ich sinf muallimi Lola Yeskarayeva salkam 25 yildan beri o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berib kelmoqda. 1-sinf o'quvchilari bilan yaqindagina «Savodxonlik saboqlari» tadbirini esda qolari tarzda o'tkazgan murabbiy bu safar «Tabiatshunoslik» fanidan «Ekologiyani arash – barchamizning burchimiz» mavzusida ochiq dars o'tdi. Bolajonlar videolavha orqali tabiatda uchraydigan noyob hayvonlarning yashash tarzi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishdi. Ayniqsa, o'quvchilardan Robiya Toshpo'latova, Muxtor Valijonov, Sevinch Ermuhammedova hamda Asadbek Yo'ldoshevning joni vorlar obrazini she'riy tarzda ifodalashi mashg'ulotning qiziqarli kechishini ta'minladi.

– Har bir bolada iste'dod yashirin. Bizning vazifamiz uni vaqtida ko'ra olish va rivojlantirish, – deydi muallima. Darsni kuzatib, bolalarning

«savol-javob» o'yinida topqirligi, o'zini tutishi-yu, fikrini erkin ifodalay olishidan quvondik.

Bolalar dunyosini o'rganib, uning mustaqil shaxs bo'lib shakllanishida ustozlar o'mni beqiyos ekanligiga yana bir bor guvoh bo'dik.

Nurbek QIDIRALIYEV

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 167-umumta'l'm maktabining 2-«A» sinfida «Tabiiy materialillardan applikatsiya tayyorlash» mavzusida ochiq dars bo'lib o'tdi. Darsni Toshkent pedagogika kollejining maxsus fan o'qituvchisi Muhammadiy Kamolova ushu ta'lim muassasiga biriktirilgan amaliyotchi o'quvchilarida kasbiy ko'nikmalar hosil qilish maqsadida tashkil etdi.



N. SULTONOV o'lgan suratlari

haqda tushuncha berildi. Amaliy ishni talab darajasida bajargan o'quvchilarning ishlari a'loga baholandi.

Ochiq dars yakunida o'tilgan mavzular kuzatuvchi o'qituvchi va amaliyotchi o'quvchilar ishtiroyida tahlil qilindi.

MAHALLAM TARIXINI O'RGANAMAN

Bizning mahallamiz Denov tumanida joylashgan bo'lib, u bejizga «Nurli manzil» deb atalmagan. Sababi, mahallamiz ko'chalari obod, ozoda, sport o'yingohlari, do'konlar, ko'p qavatl uylar, turli-tuman hashamatli inshootlar go'zal maskanimizga ko'rk bag'ishlab turibdi. Mahallamizning raisi Shahodat opa Rahmonova

Dilfuza RUSTAMOVA,
Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 10-IDUM 7-sinf o'quvchisi



Dastavval, mehnat darsining boshqa fanlar bilan bog'liqligi haqida doskaga chizma ilib qo'yildi. O'quvchilar navbatna-navbat chiqib, bu darsning odobnama, matematika, rasm, ona tili, o'qish kabi fanlar bilan aloqada ekanligini tarmoqlab, chizib ko'ratishti.


Yangi mavzuga o'tishdan avval o'quvchilarning qiziqishini ottirish uchun «Aqliy hujum» usulidan foydalaniib, bog' mevalariga va sabzavot ekinlariga nimalar kirishini aytilib, degan savol berildi. Ular ko'rgazmali qorollar orqali meva va sabzavotlar nomini aytib, foydali xususiyatlarini she'riy tarzda ta'riflashdi:

Men sizlarning
olmangiz,
Xomligimda olmangiz.
Nortojiga o'xshab
so'ng,
«Voy qornim», deb
qolmangiz.

So'ngra turli urug'lardan applikatsiyalar tayyorlandi, ular qaysi meva va sabzavotga tegishli ekanligi

Munojat BAHROMOVA,
Dilfuza NIZOMOVA,
Toshkent pedagogika kolleji o'qituvchilari

FRIENDSHIP (Do'stlik)



Once upon a time there were a bee and a grasshopper. They were the best friends. One day the grasshopper said to the bee:

— My dear friend bee you always correct my mistakes and help to people. You like flowers and you can fly, you gather honey. Why do you do this work? Why do you help everybody? But I am always happy, dance and sing in the meadow.

Bee answered to the grasshopper:

— No my dear friend. We should help everybody every time if we can. It makes us enjoy from our life and you feel more needful for others.

Dilhayot ERKINOVA,

the pupil of school number 25, 8th form in Angren city, Tashkent region

CAN YOU MAKE THE NEW WORD? (Yangi so'z yasay olasizmi?)

Dear pupils make up the professions using the following suffixes and words!

-ist, -or, -er, -ist, -er, -ist, -or, -ist, -er

Piano + ist = pianist

Sail + ...

Teach + ...

Economic + ...

Swim + ...

Tell + ...

Write + ...

Bicycle + ...

Diplomatic + ...

Translate + ...



Zilola JAMOLOVA,
Jizzakh region, Jizzakhlik street

IT IS INTERESTING (Bu qiziq)



Read the text and learn to translate.

The World's Tallest Plant. A giant Californian redwood may be the tallest tree in the world, but there are plants in the sea that are much taller than any tree.

At the southern end of South America, seaweed more than 180 meters in height has been found. The Statue of Liberty, near New York, is half that height.

WHAT IS DIFFERENCE? (Farqi nimada?)

Read and find the same words only with pronunciation:

Eat	back
Seat	«h»
Leave	it
Had	live
Bag	sit
Age	hat

Do	see
Done	goes
Does	meet
Meat	so
Weak	gone
Sea	week

Umida UMAROVA

Lesson 70

THE PROPIETY OF CONVERSATION (Telefonda gaplashish odobi)

REMEMBER!

— Every ring begins with greeting and introducing.

— Then you will ask to call the people whom you want to speak to.

— Before beginning conversation ask: — If you haven't interrupted significant work.



«Don't speak aloud on a bus!»

— When you are speaking to your familiar or friend you may call on main work.

— Don't speak unnecessary words on the telephone.

— Don't ring up your friends if it is quite late.

— Don't ring up any more if nobody answers your several calls.

— If someone dials wrong number and calls you, don't be rude and answer softly:

— «Sorry, you have dialed wrong number».

Sometimes you meet the people speaking aloud on the mobile phone among people in the street. Sometimes everybody hears the people's voice who speaking on mobile phone, when you are on a tram and buses. They say, in Japan a man on a bus speaks loudly on his mobile phone, the passengers beat him for it. We can't say that we won't come across to such problems. Let's suppose, necessity appears law-rules itself.

Sarvinoz NAZAROVA,

the pupil of first course 3rd lyceum by Uzbek State World Languages University

TONGUE TWISTERS (Topishmoqlar)

Dear pupils find and read of school subjects and send answers.


If you do every exercise,
You will be healthy and wise.
If you want run, if you want jump,
Do it for yourself, you won't be plump.

My brother like learning countries,
With the map he has more strengthens.

FIND YOURSELF (O'zing top)

Dear pupils can you find the synonyms of these words, fill the empty places using these words:

Aspiration, learner, start, scholar, rapid, charming, purpose, fast, attractive, speed, elegant, commence, goal, open.



Prepared by Dinora SHAKIROVA



Xurram RAYIMOV,
Surxondaryo viloyati,
Denov tumani

VATAN ISHQI

Vatan ishqisi qon bilan kirgan,
Tutashiqdir unga sha'nizim.
Vatan g'urur, Vatan iftixor,
Vatan – bizning shirin jomimiz.

Shunday Vatan doim bor bo'lsin,
Kulib tursin unda gul, chechak,
Go'daklarning qovonchlaridan,
Kuylayversin har bir belanchak.

Hayot bunda bardavom bo'llib,
Tinchlik, do'stlik bo'lsin hukmron.
Ushalmagan qolmasin orzu,
To'lib-toshin omborlarda don.

Shiorimiz tinchlik va do'stlik,
Adolatdir bosh Qomusimiz.
Baxtimizdan so'yaydi ertak,
Yaxshilikdir or-nomusimiz.

SHIRIN BOLALAR

O'ynang, o'ynang siz bolajonlar,
Dillarga o't yoqib o'ynangiz.
Ko'kda uchgan oqqushlar misol,
Sho'x-sho'x qanot qoqib o'ynangiz.

Sharqiragan soyning saslari,
Uyqungizda allalab tursin.
Subhidamda ochilgan g'uncha,
Lablarini siz tomon bursin.

Sayroq bulbul nag'malaridan,
Istalgancha oling harorat.
Tunda oyning yarqirashidan,
Qalbingizga ko'chsin halovat.

Shodon quvnab o'ynang bolalar,
Zavqningizni soching yellarga.
Yomon ko'zlar panalab ketsin,
Gard qo'nmasin nozik dillarga.

Yer kurrasin qaysi burchida,
Tug'ilajak shirin bolalar.
Buzimasin ularning tinch'i,
Tinchlik bo'lsin mangu tayanchi.

Sohibjon bilan sinfdosh edi. Hozir do'stim haqida emas, uning bobosi, ko'pchilik Novvot amaki, deb e'zozlagan Mamajon buva haqida hikoya qilgim keldi. U kishi qo'lil gul oshpaz, damlagan oshlarining ta'rif esa elda ovoza edi.

Bu voqeal 8-sinfni bitirgan yilimiz bo'lgan edi. Mamajon buva adirlik etagida qovun-tarvuz ekip, erta bahordan kech kuzgacha chayyla tikib, o'sha yerda bo'lardi. Bir kuni Sohibjon chaqirib qoldi. Buva yaqin tanishlarining to'yida xizmat qiladigan bo'libdi. Agar menga ruxsat berishsa, bir-ikki kun chaylada bo'lib, polizga qarab turishimiz kerak ekan. Do'stim bilan dadamdan ruxsat oldik.

Onam xaltachaga solib bergen non, qand-qursni olib, adirga otlandik. Yetib borgach, sigir, qo'yularni sero't joyga siljildik. Polizdag'i qovun-tarvuzlar ancha yetilib qolgan. Oqshomda buvaning qumg'onida choy qaynatdik. Onam yopgan nonlarining mazasini o'shanda bilganman.

Keyin esa chayla yonidagi so'riga cho'zildik. Osmon tip-tiniq. Atrofni yetilib, shiradan «stars» yorilgan qovunlarining isi tutib ketgan. Qo'l yetgudek joyda jimirlab turgan son-sanoqsiz yulduzlarga kilib, uxbab qolimbiz. Qayosh bilan barobar uyg'ondik. Ishlami saranjom qilib nonushtaga o'tirdik. Chaylada sabzi-piyozdan tortib, yog'u guruchgacha bor ekan. Bu narsalarga qarab turganimni ko'rib, Sohibjon yaxshi gap aytilib qoldi:

– Kel, bobomni kelishiga osh damlaymiz. Ko'rib xursand bo'ladi.

Men ovqat pishirishni bilmasligimni aytdim.



MARD-U MAYDON YIGITLAR

El koriga yaraysiz,
O'zbekman, deb yayraysiz,
Yurt xizmatiga shaysiz,
Siz – pahlavon yigitlar.

Siz bor, tinch yurt tuprogi'.
Hilpiraydi bayrog'i.
Yoniqdir uy chirog'i.
Mard-u maydon yigitlar.

Mag'rur mudom shahdingiz,
Yurakda zo'r ahdingiz.
Albat, bordir baxtingiz,
O'ktam o'g'lon – yigitlar.

Sizgadir ezgu tilak,
Yog'dirar nurin falak.
Sofdir, jasur, sheryurak,
Qo'rmas posbon – yigitlar.

Xurshidabonu ODILOVA,
Namangan davlat universiteti
qoshidagi 2-akademik litsey
o'quvchisi



SEN – YURTIMNING POSBONI

Hur Vatanning jasur o'g'loni,
Opichlaysan yorug' dunyon.
Senga mudom soyabon erur,
Yurtimizning tinchlik qo'rg'oni.

Quvonch bilan yonma-yon yurib,
Har qadamda omading kulib.
Tuprog'ingni e'zozlab yurgin,
Balolalikning gashtini surib.

Sen – yurtimning jaiji posboni,
Qoningda bor buyuklar qoni.
Yashnayotgan O'zbekistonning,
Keljagi, zo'r pahlavon!

AXTAMQULI



– Katta bo'lsam, albatta, harbiy
bo'lamon, – deydi poytaxtimizning
Yakkasaroy tumanidagi 358-MTM
tarbiyalanuvchisi Alisher
SHERMATOV

O'ZBEGIMMING DILBAR QIZLARI

Milliyigli aks etar unda,
Yonib turar shahlo ko'zlar.
Ibo-hayo mujassam bari,
O'zbeginning dilbar qizlari.

Uyga tashrif buyursa mehmon,
Tillarida shirin so'zlari.
Odobligi hammaga yoqqaq,
O'zbeginning dilbar qizlari.

Husn-u latofat ichra tanho,
Nigohlari misoli pari.
Oy uyalar husnidan hatto,
O'zbeginning dilbar qizlari.

Guljonoy YAXSHIMURODOVA,
Xorazm viloyati, Qo'shko'pir
tumanidagi 4-ixtisoslashtirilgan
mabitab-internatinning
7-sinf o'quvchisi



YOQUBBEK chizgan rasmlar

– Sohibjon bolam, chaylaning orqasidagi o'tin kamayib qolibdimi?! Ha, mayli, – dedi bobo nimtabassum bilan savoliga o'zi javob berib. – Indinga bir-ikkitqa qadrondoliarim kelishmoqchi, qarashib yuborasizlarimi?

Bu gapdan sevinib, aytilgan kuni yana adirga keldik. So'riga dasturxon tuzab qo'yilibdi. Bobo biz bilan iliq hol-ahvol so'rashdi.

– Hozir osh damlaymiz, – dedi jilmaygancha.

– Men o't yoquvchi bo'lamon, – deya o'tin olib kelmoqchiydim, buva to'xtatdi.

– Ovora bo'lmanglar. Hamma narsa taxt, – dedi buva o'choq yonidagi ikki dona g'o'lachaga ishora qilib. Keyin g'o'lachani olib xuddi qalam tarashlagandek, teshada payralab o't yoqdi. Buni ko'rib, hayron qoldim.


– O'tgan kuni katta oshga yetadigan o'tinni yoqib yuborisbzilar. Isrof yaxshi emas. Har ishni obi-tobida qilishni o'rganing. Hatto daftardagi bitta varaqni ham behuda sarflamang. Hamma narsaning uvoli bor. Me'yorini bilgan odam aslo zoriqmaydi.

Meni hayron qoldirgani, ikkitqa g'o'lacha o'tin osh damlashga yetib, ortib ham qolgandi. Men keyinchalik yo'lda yotgan kichkina cho'pni ham chetga olib qo'yishga o'rgandim. O'quv qurollarim esa anchagacha yetadigan bo'ldi. Bugun biror narsani isrof qilayotgan kishini ko'rsam, beixtiyor Mamajon buva yodimga keladi. Do'stim Sohibjon hozirda olim, iqtisod fanlari doktori. Ko'rishib qolganimizda, albatta, Mamajon buvaning sabog'in esga olamiz.

Yusuf ABDULLAYEV

NOVVOT BUVA YODIMGA TUSHDI

(Hikoya)



Do'stim, «olovni yoqaver, sabzi-piyoz yaxshi govurilsa, mazali bo'ladi», deydi xuddi usta oshpazlarday. Boboning kelishiga oshni damlab qo'yidik. Buva oshimizni maqtab-maqtab yedi. O'sha kuni ham dalada tunab qoldik. Ertalab tursak, buva choy tayyorlab qo'yibdilar. Birgalashib nonushta qildik. Bir tekis tilimlangan qovunning shirasidan barmoqlarim bir-biriga yopishib qolgandek bo'ldi.

JASORAT MARDLARGA YORDIR

O'zbekiston zaminidagi bugungi tinch va osuda hayot, farovonlik xalqimizga Iстиqlol baxsh etgan bebafo ne'matlardandir. Milliy armiyamiz ana shu osudalik va farovonlikning muhim kafolati va ishonchli qalqonidir.



Yurtimizda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy va ma'nnaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularga yaratilgan

sharoitlarni kuzatar ekanmiz, beixtiyor ularga bo'lgan faxr va iftixor tuyg'usini his etamiz. Shunday posbonlarimiz bor ekan, osmonimiz musaffo, ko'nglimiz hamisha xotirjam.

Bunday samimiy dil izhori Vatan himoyachilar kuniga bag'ishlanib Toshkent viloyatining Zangiota tumanidagi 22-umumta'lif maktabida o'tkazilgan «Bor bo'ling, Vatan posbonlaril!» mavzusidagi ma'nnaviy-ma'nifiy tadbir ishtirokchilari va me'monlari tomonidan ko'p bor e'tirof etildi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi Shahnoza Shokirova o'zi rahbarlik qilayotgan 2-«A» sinf o'quchilar bilan tashkil etgan shodiyonada tuman ichki ishlar xodimi Behzod Abdusamatov, iste'fodagi polkovnik Bahodir Jalilov,

«Pastdarxon» mahalla fugarolar yig'ini raisi Abduqayum Xalilov, mahalla diniy-ma'rifat va ma'nnaviy-axloqiy, tarbiyaviy

masalalar maslahatchisi Gulnora Odilova, ota-onalar, maktab o'quchilar ishtirok etdilar. O'quchilar o'zlari yod olgan ona

Vatan, askar, posbonlar ha qidi g'i she'rлarini ay tishdi. Sahna ko'ri-nishi orqali yurtimizga jismonan baquvvat, mard, bilimdon yigitlar kerakligi namoyish etildi.

Mening 1 nafar o'g'lim, 4 nafar qizim bor, - dedi tadbirda so'zga chiqqan Gulnora Odilova. - O'g'lim Sobirjon Surxondaryoda muddatli harbiy xizmatni o'tagan. Men ana shunday mard, jasur farzandning onasi ekanligimdan faxrlanaman.

Maktab rahbari Gulnora Zokirova katta quvонch bilan ta'kidlaganidek, 2-«A» sinf o'quchilar Doniyor Mansu-

rov, Abdumalik Shukrullayev, Behzod Yo'ldoshev, Abdulaziz Tohirjonov, Hojiakbar Qobiljonov, Abdujalil



Qobiljonov, Ilhom Tohirova, Abdurasul Ergashaliyev kabi o'quchilar sportning kurash, futbol va boshqa turlari bilan mutazam shug'ullanishar ekan.

Qalbi g'urur va iftixorga to'lib, she'r aytil, qo'shiq kuylayotgan, jismonan chiniqayotgan bu jahji bolalardan Vatan himoyasiga tayyor o'g'il-qizlar chiqishi aniq.

Nodira NAZAROVA,
Dinora HAMIDULLA qizi

Bolalar sporti



YANGIBOZORLIK OSHLARGA TUHFA

Buxoro viloyati haqida so'z ketganda, beixtiyor ko'z o'ngimizda adog'i yo'q kengliklar bag'rida bunyod etilgan betakror tarixiy obidalar, ko'kka bo'y cho'zgan minoralar gavdalananadi.

Quvonarlisi, Iстиqlol yillarda bu qutlug' go'sha yanada chiroy ochdi. Ayniqsa, qishloq joylarida namunaviy loyihamalar asosida bonyod etilayotgan turarjoy binolari, zamonaviy sport inshootlari, ta'lif maskanlari, go'zal bog'-u rog'lar odamlarining yashash tarzini tubdan o'zgartirish, ularning kelajakka bo'lgan ishonchini yanada oshirmoqda.

Viloyatning olis Qorako'l tumanidagi Yangibozor qishlog'i aholisi kirib kelgan yangi 2016-yilni quvondchi voqealari bilan qarshi oldi. Boisi, hududdagi 30-bolalar va o'smirlar sport maktabini mukammal ta'mirdan chiqarilib, yoshlar ixtiyoriga topshirildi. Buning uchun O'zbekiston Bolalar

sportini rivojlantirish jamg'armasining 852 million so'mdan ziyod mablag'i surf etildi. 230 o'ringa mo'ljalangan ushbu majmuuda sport zali, kiyinish xonalari, o'yingoh, yugurish yo'laklari ta'mirdan so'ng go'zal qiyofa kasb etdi. Endilikda qishloq yoshlari bu yerde sportning futbol, voleybol, basketbol, qo'l to'pi, dzyudo, kurash, badminton, tennis turlari bilan muntazam shug'ullanish imkoniga ega.

Sport maktabimizda yoshlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan, - deydi markaz direktori Bo'ston Qo'shshiyev. - 2015-yilda maktabimiz

voleybolchilaridan tarkib topgan tuman terma jamoasi «Umid nihoffari» sport musobaqasining viloyat bosqichida uchinchisi, «Yozgi ta'til - 2015» turnirida ikkinchi o'rinni qo'lg'a kiritdi. Nasib bo'sa, kelajakda qishlog'imiz yoshlari orasidan qit'a va jahon championlari yetishib chiqib, yurtimiz nomini butun dunyoga tanitadilar.

Sa'dullo TURSINOV

Alisher Hasanov - Qo'qon shahridagi 12-Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi.

OMAD YOR BO'L SIN



Bugungi kunda Alisher murabbiyi Muzaffarjon Boboyev qo'l ostida sportning «O'zbek jang san'ati» turi bilan shug'ullanib kelmoqda. Yosh sportchigator musobaqalarda qatnashib, yetakchi o'rinalarni egalladi. O'tgan yilning dekabr oyida Angren shahrida Viloyat ochiq birinchiligidagi 65 kg vazn toifasida 15 - 18 yoshlilar o'tasida 1-o'rinni qo'lg'a kiritdi. Shuningdek, «Sog'lom avlod» an'anaviy «Jhoon Ree Taekwando» turnirida o'z vazn toifasida 1-o'rin sohibi bo'lди.

Sportch hozirda o'z ustida timinsiz ishlamoqda, chunki u yaqinda Qozog'istonning Ostona shahrida o'tkaziladigan xalqaro musobaqada qatnashmoqchi. Omad yor bo'sin, Alisher!

Ulug'bek SAIDOV

AZAMAT SPORTCHI BO'LADI

Toshkent viloyatining Bo'ka tumanidagi «Do'stlik» mahallasida joylashgan 34-umumta'lif maktabida karate sport to'garagi tashkil etilgan.

Mahalla faoliyatlardan biri Kenjagul momo nevarasi Azamatni shu to'garakka berdi. 1-sinfda o'qiydig'an bolaklay qisqa fursat ichida karate usullarini o'zlashtirib oldi. Avvaliga, Salohiddin aka va Fotima opa o'g'lining hali yoshligi, mashqlarni bajarishda qynalishini istamay, momoga e'tirof bildirishdi. Biroq, Kenjagul momo gapida turib oldi. O'zi shaharga borib, nevarasiga maxsus sport kiyimlari olib keldi. Momo adashmagani edi. Azamat hozirda ham a'lochi, ham yaxshi sportchilardan.

- Azamatim kelajakda zo'r sportchi bo'lib, O'zbekiston sharafini himoya qilishiga ishonaman, - deydi momo. Nuroni onaxonning ezgu niyatni amalga oshishiga biz ham ishonamiz.

Shukrulla G'ULOMOV

SIZNING KITOB JAVONINGIZGA



«O'ZBEKISTON», CHO'LTON NOMIDAGI NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYLARI VA «O'ZBEKISTON MILLIY ENSIKLOPEDIYASI» DAVLAT ILMUY NASHRIYOTI TOMONIDAN CHOP ETILGAN ENG OMMABOP YANGI ADABIYOTLAR:

Aziz o'quvchilar, mana, qishki ta'tilni yakunlab, o'qishlarni ham boshlab oldingiz. Biz tahririyat xodimlari bo'sh vaqtningizga yanada mazmun baxsh etish maqsadida, yurtimizdag'i nashriyotlarda chop etilgan eng sara badiiy adabiyyotlar bilan Siz azizlarni tanishtirib borishga harakat qilamiz. Ishonamizki, ushu asarlar kitob javoningizdan munosib o'r'in egallaydi.


SO'ZLAR JILOSI

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyotida yaqindagina chop etilgan «Ming bir so'zni bilaman» nomli rasmli izohli lug'at kelajagimiz egalari bo'lgan farzandlarimizga o'zligini anglasdek mas'uliyatlari vazifani uddalashda yaqin ko'makchi bo'ladi, degan umiddamiz. Lug'atda sevimli farzandlarimiz uchun ona tilizmading ming bir so'zini uning turli ma'nolarida izohlab, rasmilar yordamida tushuntirib berishga harakat qilindi. Taniqli adibimiz, bolalar shoiri Miraziz A'zamning sa'y-harakatlari bilan tuzilgan sermazmun va purma'no so'zlar lug'ati nashriyotda mehnat qilayotgan muharrir-u dizayner, rassom-u noshir aka-opalarining tomonidan sayqallanib, Sizlarga kitob holida taqdim etildi.



QIZIQARLI SARGUZASHT

«O'zbekiston» NMUda chop etilgan mazkur ertak-qissa ko'z ko'rib, qulqoq eshitmagan voqealarga boyligi bilan ajralib turadi. Bolgar adibining qalamiga mansub ushu qissa hazil-mutoyibaga yo'g'rilgani, hayotda ko'rib-bilib yurgan narsalaringizni jonivorlar harakati orqali sodda va ishonchli tarzda yoritib berilishi Siz bilan birga ota-onalaringizni ham qiziqitirib qo'yishi turgan gap.



HAYOTIY LAHZALARGA BOY

Cho'lpon nomidagi NMUda nashrdan chiqqan ingliz adabiasi Uaydaning «Nello va Patrash» asari qahramonlari o'zining olyjanobligi, mardligi va kamtarligi bilan o'quvchini o'ziga maftun etadi. Uning «Nello va Patrash» hikoyasida iste'dodli flamand o'smirining og'ir turmushi, ayanchli qismati tasvirlanadi. Hikoya qalbni larzaga soladigan hayotiy lavhalarga, ta'sirli turmush manzaralariga boy.

S. TURSINOV tayyorladi

18-yanvar 2016

Bosh muharrir
Feruza ADIROVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston yoshlar Kalq ta'llimi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

TAHIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Dilshod KENJAYEV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kitob)

Navbatchi
muharrir
Axtamqul
KARIMOV
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel/faks: 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushnaba kuni chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 45003
Buyurtma – S 4920



Bibliografiya-ma'lumot va o'lkashunoslik bo'limi xodimasi Shohista Sattorova kitobxon o'quvchilar davrasida.

Ma'naviy boyligimiz bo'lgan kitoblarni targ'ib qilishda kutubxonalar muhim o'rinn tutadi. Bu borada Respublika bolalar kutubxonasida o'quvchilarning ichki dunyosini boyitish yo'lida o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

BEBAHO DUR YOG'DUSI

Bugungi tadbirga dugonalarim – 4-«A» sinf o'quvchilari Umida Musamuhamedova va Sevinch Jovliyeva bilan birga keldik. Umuman bolalar kutubxonasida uyushtiriladigan tadbirdarda o'rtoqlarim bilan muntazam qatnashish kelamiz. Ayniqsa, Xudoiberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev, Dilshod Rajab kabi ijodkorlar bilan uchrashish va ular bilan jonli muloqtda bo'lish, biz o'quvchilarga katta ma'naviy ozuqa bo'ldi.

Donyor O'ROLOV, Respublika bolalar kutubxonasi direktori:

– O'sib kelayotgan yosh avlodni yurtga sadoqat, ona Vatanga muhabbat ruhida kamol toptirish, ular o'tasida kitobxonlikni keng targ'ib etish maqsadida, Respublika bolalar kutubxonasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Hozirda kutubxona fondida 200 mingdan ortiq nusxadagi sara adabiyyotlar saqlanmoqda. Quvonarli, har yili ziyo maskanimizga 13 mingdan ziyyod kitobxon tashrif buyurib, uning xizmatlaridan keng foydalanan.

Bugungi tadbir ham o'g'il-qizlar qalbida kitobga mehr uyg'otish maqsadida tashkil etildi.

Munavvar OCHILDIYEVA, poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 259-umumta'lum maktabining 5-«A» sinf o'quv-chisi:

– Bolaligimdan kitobga mehmur bo'lakcha. Ayniqsa, she'riyatga juda qiziqaman. Shu sababli, ba'zan she'rler ham yozib turaman. Rus va inglz tillarida erkin so'zlashma olishimda ham ushu kutubxonaning xizmatlari beqiyos. Bu yerda kitoblardan tashqari, tillarni mukammal o'rganish uchun kerak bo'ladiqan qo'llanmalar, audio-video darsliklarni ham bo'lib, bu biz o'quvchilarni o'z ustimizda ishlashimiz uchun imkoniyat eshigini ochmoqda.

Bu yerda «Tayanchim va suyanchim, faxr-u iftixorimsan, muqaddas Vatan!» deb nomlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Tadbirda 161-umumta'lum maktabi qoshidagi «SHTURM» harbiy maktab kursantlari va Yunusobod tumanidagi 259-umumta'lum maktabi o'quvchilari o'z bayram dasturlari bilan ishtiroy etdilar.

– Bolaligimdan harbiy uchuvchi bo'lishga qiziqaman. Universal jang san'ati bo'yicha O'zbekiston championi bo'lganman. Bo'sh vaqtlarimda badiiy kitoblar mutola qilib turaman, – deydi 9-«G» guruh kursanti Muhayyo Mahmudova.

Mana shu maktabning 7-«D» guruh kursanti Asadbek Yoqubov kelajakda harbiy shifokor bo'lishni maqsad qilgan.

– Ingliz tilini katta qiziqish bilan o'rganyapman. Bo'sh vaqtlarimda esa she'r yozishni mashq qilaman, kitob o'qiyman, – deydi Asadbek.

Ushbu tadbir har bir o'quvchi qalbida mardlik, jasurlik, vatanparvarlik kabi yuksak ma'naviy, axloqiy fazilatlarni shakillanirishi bilan yanada ahamiyatiidir.

Shavkat KAZAKBAYEV,
Jamoliddin ABDULLAYEV